
XALQ DEPUTATLARI BUVAYDA TUMANI KENGASHINING QARORI

2022 - yil 4 - fevral

VI-43-20-11-154-K/22

Buvayda tuman

hokimligi

2021-yilda jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo'naltirilgan mablag'lar hisoboti to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 28-avgustdagi "Byudjet ma'lumotlarining ochiqqligini va byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3917-sonli hamda 2021-yil 13-apreldagi "Byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5072-sonli Qarorlariga asosan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2021-yil 22-apreldagi KQ-213-IV-sonli Qarori, shu bo'yicha Xalq deputatlari tuman Kengashining 2021- yil 4-maydagi "Mahalliy byudjet mablag'lari sarflanishida jamoatchilik ishtirokini ta'minlash to'g'risida"gi VI-XXX/129-sonli qarori bilan tasdiqlangan namunaviy Nizomning 27,29-bandlari ijrosini ta'minlash maqsadida Xalq deputatlari Buvayda tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Xalq deputatlari tuman Kengashining 2021-yil 5-maydagi "Mahalliy byudjet mablag'lari sarflanishida jamoatchilik ishtirokini ta'minlash to'g'risida"gi VI-XXVIII-191-sonli qarori bilan tasdiqlangan namunaviy Nizomning 27-bandiga asosan 2021-yilda jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo'naltirilgan mablag'lar yuzasidan tuman hokimligi moliya bo'limi mudiri v.v.b A.Ergashevning hisoboti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Mazkur qaror bilan quyidagilar:e-qaror.gov.uz 04.02.2022 2021-yil "Tashabbusli byudjetlashtirish" jarayoni natijalari bo'yicha ma'lumotlar 1- va 2-ilovaga muvofiq;

2021-yilda "Fuqarolar tashabbusi" jamg'armasi mablag'larining shakllanishi to'g'risidagi ma'lumotlar 3-ilovaga muvofiq;

2021-yilda "Fuqarolar tashabbusi" jamg'armasidan jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan (g'olib deb topilgan) tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo'naltirilgan mablag'lar 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. 2022-yil fevral oyida o'tkaziladigan "Tashabbusli byudjetlashtirish" jarayonining 1-bosqichi uchun ajratilgan mablag'lar miqdori 5 747 350.3 ming so'm miqdorida tasdiqlansin.

4. Tuman hokimligi moliya bo'limi v.v.b (A.Ergashev), Mahalla va oilani qo'llab quvvatlash bo'limi (B.Imomaliev), Yoshlar ishlari agentligi tuman bo'limi (N.Karimov) hamda mahalla fuqarolar yig'inlari bilan birgalikda fevral oyida o'tkaziladigan "Tashabbusli byudjetlashtirish" jarayoniga keng jamoatchilikni jalb etish bo'yicha targ'ibot tashviqot ishlarini olib borsinlar.

5. Tuman hokimligi moliya bo'limi v.v.b (A.Ergashev), tuman hokimligi axborot xizmati (A.Solieva) Tashabbusli byudjetlashtirish natijalari bo'yicha ma'lumotlarni keltirilgan ilovalarga muvofiq shakllarda "Ochiq byudjet" axborot portali hamda hokimlikning rasmiy veb-saytlariga joylashtirish va har chorak yakunlariga ko'ra, keyingi chorak birinchi oyining 25-sanasi qadar joylashtirib borish vazifalari yuklatilsin.

6. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining "Mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi" (X.Akbarov)ga, ijrosini ta'minlash moliya-iqtisodiyot va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha tuman hokimining birinchi o'rinbosari D.Mirzaxalilov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi

Ibragimov B. O